

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA DIDAKTIKANING XUSUSIYATLARI

Zamira Muhammedyarova Zayniddinovna

Samarqand tumani 7-maktabining boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim didaktikasining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida mulohaza yuritilgan va metodik tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta‘lim, boshlang‘ich, didaktika, tushuncha, xususiyat, bilim, ko‘nikma, samara, malaka, yondashuv, o‘qitish, metod.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan jamiyatda kitobxonlik qadriyati qayta tiklandi. Buning natijasida boshlang‘ich ta‘lim didaktikasida ham yangilanish ro‘y berdi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kitob o‘qishlari va ularni muhokama qilishlari boshlang‘ich ta‘lim didaktikasining tarkibiy qismiga aylandi. Bugungi kunda pedagogik olimlarning oldida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qishi zarur bo‘lgan adabiyotlar majmuini tuzish va kitobxonlikning didaktik muammolarini hal qilish vazifasi turibdi. Shu sababli oliy pedagogik ta‘lim jaraënida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari boshlang‘ich ta‘lim didaktikasi asoslari va yordamchi didaktik adabiyotlar xususiyatlari to‘g‘risida aniq bilimga ega bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich ta‘lim didaktikasida o‘qitishning oddiydan murakkablikka tamoyiliga asoslaniladi. Bunda o‘quvchilarning bilim darajasi va ko‘nikmasi bosqichmabosqich rivojlanib borishiga asosiy e‘tibor qaratiladi.

Hozirgi zamon texnologiyasining rivojlanishi natijasida boshlang‘ich ta‘limda masofaviy ta‘lim, kompyuterli texnologiyali ta‘lim kabilar keng qo‘llanilmoqda. Shu sababli bunday texnologiyali ta‘lim turlarining didaktikasini ishlab chiqish zaruriyat bo‘lib turibdi. Bu borada bizning yondashuvimiz quyidagicha: kompyuter kabi texnik imkoniyatlar boshlang‘ich ta‘limda maqsad emas, balki vosita bo‘lishi kerak. Bunday yondashuv 7-11 yoshli o‘quvchilarning texnik vositalardan oqilona foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi. Boshlang‘ich ta‘lim didaktikasi samaradorligi. O‘zbekiston sharoitida boshlang‘ich ta‘lim didaktikasining samaradorligi quyidagilar bilan belgilanadi: a) o‘quv jarayonini eng yuqori talablar asosida tashkil etish;

- b) boshlang‘ich ta‘limni professional o‘qituvchilar bilan ta‘minlash;
- d) boshlang‘ich ta‘lim davlat standartlarini qat‘iy bajarish.

Didaktika pedagogika fanining muhim tarkibiy qismidir. “Didaktika” so‘zi lotincha bo‘lib, o‘qitish nazariyasi va qonuniyatlarini o‘rganadi. Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat:

- 1) o‘qitish;
- 2) ta‘lim berish;
- 3) o‘qish.

Didaktikaning o‘qitish kategoriyasi ta‘limni ilmiy va tizimli qonuniyatlar asosida tashkil qilishni ifodalaydi. Mazkur kategoriya pedagogikaning negizi hisoblanadi.

Didaktikaning ta‘lim berish kategoriyasi quyidagilarni bildiradi:

- bilim berish;

- ma’lumotlar uzatish;
- o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- o‘qish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish;
- o‘quvchilarning ijodkorligi va mustaqilligini shakllantirish;
- o‘quvchilarning o‘zlashtirishini baholash.

Mazkur mezonlarga binoan boshlang‘ich ta’lim didaktikasining samaradorligiga erishiladi. Keyingi paytlarda boshlang‘ich ta’limda texnik vositalarni va zamonaviy texnologiyalarni keng qo‘llanilayotganligi bois boshlang‘ich ta’limning samaradorligi aynan ana shu jarayon bilan baholanmoqda. Biroq, boshlang‘ich ta’lim didaktikasining samaradorligi eng avvalo O‘qituvchilarning faoliyati bilan baholanishi kerak. Chunki o‘qituvchining asosiy maqsadi o‘quv fanlarini talab darajasida o‘qitish, tushuntirish va uning yo‘nalishlarini baholab borishdan iborat. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim didaktikasida texnik vositalar va zamonaviy texnologiyalar samaradorlikka erishishning ikkilamchi asosi hisoblanadi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari boshlang‘ich ta’lim didaktikasining samaradorligiga erishish ko‘nikmasini egallashi taqozo etiladi. Buning uchun talabalar quyidagilarga amal qilishi kerak:

- boshlang‘ich ta’lim didaktikasi bo‘yicha bilimlarni egallash;
- boshlang‘ich ta’lim didaktikasiga doir qo‘shimcha adabiyotlarni o‘qish;
- “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali va “Ma’rifat” gazetalari bilan muntazam tanishib borish;
- Ustozlardan boshlang‘ich ta’lim didaktikasiga doir maslahatlar olish.

XULOSA

O‘zbekiston sharoitida umumiy didaktika masalalari yaxshi tadqiq etilgan. Ayni paytda, boshlang‘ich ta’lim didaktikasi bo‘yicha ilmiy ishlanmalar kam. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida talabalarining boshlang‘ich ta’lim didaktikasi muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqotchiligini kuchaytirish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim didaktikasining umumiy samaradorligi 4-sinf bitiruvchilarining bilim va ko‘nikma darajasi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan boshlang‘ich ta’lim bitiruvchilarini umumiy, Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorlash vazifasi qo‘yildi. Shu ma’nodan boshlang‘ich ta’limni bitiruvchilar ushbu ta’lim maskanlarining qaysi birida ko‘p o‘qishiga qarab boshlang‘ich ta’lim didaktikasining umumiy samaradorligi baholanishi tarkib topdi. Bu yangilik boshlang‘ich ta’lim didaktikasi samaradorligida asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Shunday qilib, hozirgi zamon “Boshlang‘ich ta’lim didaktikasi” mazmuni o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan pedagogik fanlar tarkibida muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so‘zlagan Murojaat nutqi.// “Xalq so‘zi” gazetasi 2020 yil 1 oktabr soni.
2. Abdullayeva B. va boshq. *Общая педагогика*. - T.,2017.
3. Kupisevich Ch. *Основы общей didaktiki*. - M.,1986

4. Jabborova Onahon Mannapovna, Jumanova Fotima Uralovna, Mahkamova Shohida Rahmatullayevna. (2020). Formation of artistic perception of future teachers. *International journal of psychological and rehabilitation*, 24(4), 4087-4095.

5. Jabborova Onahon Mannapovna. (2019). Psycholocial and pedagogical foundations of the formation of the artistic perception of students in secondary schools. *European journal of research and reflection in educational sciences*, 7(10), 9-14.

6. Jabborova Onahon Mannapovna, Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, may). Optimation of primary education. *ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal*, 10(5), 1229-1232.